

“DEVONI SA’DIY” MANBALARI TASNIFI

Sattorova D.O.

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Toshkent shahri*

Sa’dulla to‘ra ibn Said Abdullaxon to‘ra –Sa’diyning adabiy merosi jamlangan lirik asarlar O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 909/2, 7092, 6681/1 raqamlari bilan saqlanmoqda. Quyida ushbu manbalarning monografik tavsifini berib o‘tamiz:

909/2 raqamlimanba. يدعس ناويد (Devoni Sa’diy). Ushbu qo‘lyozma to‘q yashil rangli karton bilan muqovalangan. Qo‘lyozma ustida uchta o‘yma naqsh bor. Asosiy matn qora siyohda, g‘azallar qizil siyohda raqamlangan. Kitob hoshiyasida ham shoir she’rlaridan na’munalar ko‘chirilgan. Qo‘lyozma 1^b-sahifadan boshlanib 325^b-sahifada yakunlanadi. Ushbu manbaning o‘lchami 27x17,5 sm. Mazkur qo‘lyozmada Sa’diy lirik asarlari qatorida Sultoniy, Sodiq, G‘oziy, Asad kabi shoirlarning she’rlari ham jamlangan. Qo‘lyozma matni “*Bismillohir-Rahmonir-Rahimdan*” so‘ng “*Sayyid Muhammad Nosir To‘ra zayyada umura al-mutaxxallis bo Sultoniy ibni Sayyid Muhammadyor Sayyid Muhammad Rahim Baxodirxon soniy doma va davlatuhu va shavkatuhu*” sarlavhasi bilan boshlangan. Ushbu manba Sultoniyning quyidagi matla’li g‘azali bilan boshlanadi:

*Zihi qodirki sun’idin qilib arz-u samo paydo,
Jahon bog‘idaqildiyuz tuman nash-u namopaydo.*

Sa’diy she’rlari esa mazkur qo‘lyozmaning 92^b-sahifasida “*Sayyid Sa’dulla To‘ra zida umruhu al mutaxxallis bi-s-Sa’diyibni Sayyid Abdullo To‘ra zida umruhu ibn uho tamnishon Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon soniy domadavlatuhu.*” sarlavhasidan so‘ng quyidagi g‘azal matlasi bilan boshlanadi:

*Zihi sone’kisun’ig’aoningyo‘qdur adad paydo,
Xirad gafikretargazotipokini ne had paydo.*

Qo‘lyozmaning 92^b-113^b sahifalar oraliq’ida shoirning raqamlangan holatda 102 ta g‘azali ko‘chirilgan. 113^b sahifadan esa Sa’diy muxammaslari boshlanadi. Shoir muxammaslari quyidagi band bilan boshlanadi:

*Forig‘o‘lmadidahrningolomasqomibila,
O‘z nimashg‘uletmayinuqbosaranjomibila,
Korim o‘ldikecha-kunduzxalqikromibila,
Vahkiumrimbo‘ldizoye’ barchaelkomibila,
Bodayi nob o‘rnig‘axunobaoshomibila.*

Sa'diyning 113^a-114^b sahifalar oralig'ida 7 bandli "*Forig'o lmadidahrningolomasqom ibila*", 114^b-115^a sahifalar oralig'ida 9 bandli "*ZihiQodirkiaylabdahr aro sun'iajabpaydo*", 115^{a-b} sahifada 9 bandli "*Bu dam aylab manga bazmim aro tarkisitamkelgil*", 116^a sahifada 5 bandli "*Ma'shuqq'abuko nglumixushetdirabilmam*", 116^{a-b} sahifada 5 bandli "*Tez etarda rdimo tinhusningaoroberushing*", 116^b-117^a sahifalarda 7 bandli "*Borib ul yorijonoldig'a man zor*", 117^{a-b} sahifada 5 bandli "*Holimajavr-u sitamlarniravoko rmaknedur?*", 117^b-118^a sahifalaroralig'ida 7 bandli "*Bihamdillah, mani mahzung'alutfibehisobaylab*", 118^a-119^a sahifalar oralig'ida 7 bandli "*Ey ko'ngul, yuzyilg'irohatbirdamig'aarzimas*" misralari bilan boshlanuvchi 9 ta muxammasi garaqamqo'yib ko'chirilgan. Aslida muxammaslar soni bundan ham ko'proq. Chunki 114^{a-b} sahifa hoshiyasida 7 bandli "*Lutf etib manga bu dam jomivaslingehsonqil*", 114^b-115^a sahifalarida 7 bandli "*Zihialtofi Haq bo'lmish mani bechorag'ahamdami*", 115^{a-b} sahifalarda 7 bandli "*Zihisaririsolatuzraerurse nshoh*", 115^b-116^a sahifalar oralig'ida 7 bandli "*Aylar erdimorzu ul chashmifattonmujdasin*" misralari bilan boshlanuvchi 4 ta muxammas ko'chirilgan.

Qo'1 yozmaning 119^a sahifasidan shoir musaddaslari ko'chirilgan. Musaddaslar quyidagi band bilan boshlanadi:

Alo, ey shohio dil, koni irfon,
 Jahon adlingdino'ldibog'-u bo'ston,
 Saxo-vu adlila, eyshohidavron,
 Qilib sen olamahlin shod-u xandon,
 Siza lutfaylabon, eykoniehson,
 Muborakaylagayto'yingni Yazdon.

119^{a-b} sahifada bitta va 119^a -120^a sahifalar hoshiyasida yana 2 ta musaddas ko'chirilgan. Jami musaddaslar soni 3 ta. Birinchi "*Alo, eyshohiodil, koniirfon*" va ikkinchi "*Salom ul sarvigulruxsorimizg'a*" misralari bilan boshlanuvchi musaddaslar 7 band, uchinchi "*Soqiyo, qo'yamayko'nguldazarradekarmonimiz*" misrasi bilan boshlanuvchi musaddas esa 5 banddan iborat.

119^b sahifadan 120^b sahifalar oralig'ida shoirning 11 bandli "*To jahonborincha bo'lg'ay ul shahi-shohonimiz*" misrasi bilan boshlanuvchi musabba'si ko'chirilgan. Mazkur musabba' quyidagi band bilan boshlanadi:

*To jahon borincha bo'lg'ay ul shahi shohonimiz,
 Uldurur taxti xilofatda Skandar shonimiz,
 Ham adolat osmonida mahi raxshonimiz,
 Jud ila baxshishda misli Hotami davronimiz,
 Yurtimiz uzra hamesha jaddimiz, xoqonimiz,
 Shoh bizning shohimiz, sulton bizning sultonimiz,
 Davr bizning davrimiz, davron bizning davronimiz.*

Shoirning ikkinchi 7 bandli “*Ey taxti adolat uzra sulton*” misralari bilan boshlanuvchi musabbasi 120^b-121^b sahifalar oralig‘ida ko‘chirilgan bo‘lib, quyidagi band bilan boshlanadi:

Ey taxti adolat uzra sulton,
Dargohinga mehr-u mohdarbon,
Tobe’ sanga bo‘ldi jumla jonon,
Mehri ruxing o‘ldichunnamoyon,
Zarrotongabu jism ilajon,
Bu zor-u hazing‘alutfetibon,
Vasling mayini onga karamqil.

121^b sahifadan Sa‘diyning masnaviylari ko‘chirilgan. Sa‘diyning birinchi masnaviysi 121^b-123^a sahifalar orasida ko‘chirilgan bo‘lib, 49 baytdan iborat. U quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Oning ismi bilan omim binosi,
Ki yo‘qdur vasfining hech intihosi.

123^a-124^a sahifalar orasida ko‘chirilgan ikkinchi masnaviy 37 baytdan iborat bo‘lib quyidagicha boshlanadi:

Sano ul Xudoyimg‘a bo‘lsun nisor,
Kamin bandasidur bari tojdor.

Shu alohida takidlash kerakki, ushbu masnaviy 909/2, 8725, 6681 – raqamli manbalarda masnaviy deb berilgan bo‘lsada 7092 raqamli manbada qasida sifatida ko‘chirilgan.

Qo‘lyozma quyidagicha kalafon bilan yakunlanadi:

Kotib Mulla Bobojon Tarro ibni Abdulaziz mahdum marhumiy sana ming uch yuz yigirma beshlanchiyili.

7092 raqamli manba. بدعس ناويد (Devoni Sa‘diy). Qo‘lyozma ko‘k rangli yupqa karton bilan muqovalangan. Ustida uchta o‘yma naqsh bor. Matn chiroyli nastaliq xatida qora siyohda ko‘chirilgan. She’rlar qizil siyohda sarlavhalangan. Sahifalarda poygilar berib borilgan. Sahifa yuqorisida kotib tomonidan sarlavha raqami qo‘yib borilgan. Qo‘lyozmaning 1^b sahifasida “Bismillohir-Rahmonir-Rahim” dan so‘ng quyidagicha sarlavha berilgan: Sayyid Sa’dulla To‘ra zida umruhu al mutaxxallis bi-s-Sa‘diy ibni Sayyid Abdullo To‘ra zida umruhu ibnu hotamnishon Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon soniy doma davlatuhu. Qo‘lyozma matni dastlab 1^b sahifada Sa‘diyning 7 baytli “*Zihi sone’ki sun’ig’a oning yo‘qdur adad paydo,*” matlali g‘azali bilan boshlanadi. 1^b-35^a ahifalar oralig‘ida Sa‘diyning 175 ta g‘azali raqamlangan holatda ko‘chirilgan. Aslida g‘azallar ko‘proq. Qo‘lyozmaning 8^a sahifa hoshiyasida Sa‘diyning raqamlanmagan 11 baytli g‘azali ko‘chirilgan. U quyidagi matla bilan boshlanadi:

Ey qadingdur sarvyanglig‘ neajabzeboyigit,
Koshki qilsang edib azmim bukunma‘voyigit.

12^a sahifa hoshiyasida ham Sa‘diyning yana ikki 7 baytlik “*Ne bo‘lg‘ay erdi, ey dilbar, hazin ko‘nglumni qilsang shod,*”, “*Agar cheksam firoqing shiddatidin ohidardolud,*” misralari bilan boshlanuvchi g‘azali ko‘chirilgan. Mazkur g‘azallar 909/2, 8725 raqamli manbalarda mavjud emas. Demak, bu qo‘lyozmadagi g‘azallar soni 178 tani tashkil etadi.

35^a-36^a sahifalarda shoirning “*Bo‘lg‘on taxti adolat uzra doim hukmronlar, Qading g‘amida qumri kibi aylaramizhor*” misralari bilan boshlanuvchi 2 ta mustazodi ko‘chirilgan.

Qo‘lyozmaning 36^{a-b} sahifalari oralig‘ida bitta 11 baytli murabba ko‘chirilgan bo‘lib, quyidagi band bilan boshlanadi:

Alo, ey shahanshohizar rinrikob,
Jahon boricha bo‘lg‘osiz komyob,
Bo‘lub taxti adluzraizzatmaob,
Mudomo‘lfarahlig‘bilabahrayob.

Mazkur murabba 7092, 6681 raqamli qo‘lyozma manbalarda ko‘chirilgan. 909/2, 8725 raqamli manbalarda uchramaydi. 36^b-44^a sahifalari orasida Sa‘diyning 1 ta forsiy va 13 ta turkiy muxammasi ko‘chirilgan. Muxammaslar 36^b-37^a sahifalarda 8 baytli “*Man, ki yak sargashtaiishqamazavqotammao‘rs*”, 37^{a-b} sahifalarda 7 baytli “*Forig‘o‘lmadidahrningo lomasqomi bila*”, 38^{a-b} sahifalarda 9 baytli “*Zihi Qodirki aylabdahr aro sun‘iajabpaydo*”, 38^b-39^a sahifalarda 9 baytli “*Bu dam aylab manga bazmim aro tarkisitam kelgil*” 39^{a-b} sahifalarda 5 baytli “*Ma‘shuqg‘abuko‘nglumixushetdirabilmam*” 39^b-40^a sahifalarda 5 baytli “*Tez etardar dimo‘tin husninga oro berushing*”, 40^{a-b} sahifalarda 7 baytli “*Lutfetib manga bu dam jomi vasling ehsonqil*”, 40^b-41^a sahifalarda 7 baytli “*Zihialtofi Haq bo‘lmish mani bechora g‘ahamdami*”, 41^{a-b} sahifalarda 7 baytli “*Zihi sariririsolat uzra erur sen shoh*”, 41^b-42^a sahifalarda 7 baytli “*Aylar erdimorzu ul chashmifatton mujdasin*”, 42^{a-b} sahifalarda 7 baytli “*Borib ul yorijonoldig‘a man zor*”, 42^b-43^a sahifalarda 5 baytli “*Holimajavr-u sitamlarniravoko‘rmak nedur?*”, 43^{a-b} sahifalarda 7 baytli “*Bihamdillah, mani mahzung‘alutfibehisob aylab*”, 43^b-44^a sahifalarda 7 baytli “*Ey ko‘ngul, yuz yilg‘i rohat birdamig‘a arzimas*” misralari bilan boshlanuvchi muxammaslari ko‘chirilgan. Bundan tashqari 37^{a-b} sahifa hoshiyasida ham yana bitta 11 baytli “*Hamisha kavkabi baxtimo‘zing ma‘bud qil, yo Rab*” misrasi bilan boshlanuvchi muxammasi ko‘chirilgan.

44^a sahifada muxammaslar yakunlanib musaddaslar boshlangan. 44^a-45^a sahifalar oralig‘ida 11 baytli “*Ey adlsariri uzra sulton*”, 45^{a-b} sahifalarda 7 baytli “*Ne sitamlarni manga bucharxixunxorayladi*”, 45^b-46^b sahifalarda 7 baytli “*Salom ul sarvigul ruxsorimizg‘a*”, 46^b sahifada 5 baytli “*Soqiyo, qo‘ymay ko‘ngulda zarrade karmonimiz*”, 7 baytli 47^{a-b} sahifalar oralig‘ida “*Alo, eyshohi odil, koni irfon*” misralari bilan boshlanuvchi musaddaslar ko‘chirilgan.

47^b-49^a sahifalar oralig‘ida 11 baytli “*To jahon bor incho bo‘lg‘ay ul shahi shohonimiz, Uldurur taxti xilofatda Skandar shonimiz*”, “*Ey taxti adolat uzra sulton, Dargohinga mehr-u mohdarbon*” matlali musabba‘ko‘chirilgan.

49^a sahifadan ijodkor masnaviylari boshlangan. 49^a-50^b sahifalar oralig'ida 49 baytli "*Oning ismi bilanomim binosi, Ki yo 'qdur vasfining hech intihosi.*", 50^b-51^b sahifalar oralig'ida 53 baytli "*Sano o 'lsunonga hamd-u sanoyish, Ki ondindur bori ishga kushoyish.*" Matlali masnaviy ko'chirilgan.

Mazkur devon so'ngida 3 ta qasida ko'chirilgan. Birinchi 37 baytli qasida 51^b-52^b sahifalar oralig'ida ko'chirilgan bo'lib, quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

Sano ul Xudoyimg'abo'lsun nisor,
Kamin bandasidur bari tojdor.

Ikkinchi qasida 37 baytdan iborat bo'lib qo'lyozmaning 52^b-53^b sahifalar orasida ko'chirilgan. Qasida matlasi quyidagicha boshlanadi:

Xudovando, boribandangg'aqilg'illutfilaehson,
Nasimi rahmatingding'unchako'ngliniqilxandon.

Uchinchi qasida 31 baytdan iborat bo'lib qo'lyozmaning 53^b-54^a sahifalar orasida ko'chirilgan. Qasida matlasi quyidagicha boshlanadi:

*Holima lutf-u karamlaray labon, ey soqiyo,
To 'ldurub gulrang may tutg'ilqadahbirla mango.*

Qo'lyozma 54^a sahifada quyidagi kalafon bilan yakunlangan:

Alhamdulillah valmin nahushbu devon Sa'diyni kimbo amri sultoni zamon va nodirid-davrona'ni Abulmuzaffar valmansur Abulg'oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon soniy doma davlatu huvashav katuhuning farmoni oliylari bila sana bir ming uch yuz yigirma yetti(1327 raqam holatda berilgan) lanchiyilimohish avvalningo'nlanchisi chorshanbi kuni erdikim Mulla Boltaniyoz al mutaxxallis bi-Nadimiyvaladi Usta Qurbonniyoz yozib itmong'a yetkurdi. Tammatulkitobbiavni malikil Vahhob

6681/1 raqamli manba. دعس ناويد (Devoni Sa'diy). Qo'lyozmaning o'lchami 28x17, 5 sm. Asosiy matn fabrika qog'ozida chiroyli nastaliq xatida ko'chirilgan. Yaxshi saqlangan. Har bir sahifada poygilar berib borilgan. G'azallar raqamlangan. Asosiy matnda Sa'diyning 172 ta g'azali ko'chirilgan. Ammo sahifa hoshiyalarida ham Sa'diyning birnecha g'azallarini uchratishimiz mumkin. Ijodkor g'azallari 1^b sahifadan 32^b sahifalar oralig'ida keltirilgan. 2^b-3^a sahifalar hoshiyasida 3 ta 7 baytli "*Ey jamoling oftobi olam orodur manga*", "*Naylayin xurshedni ul mohrux soro 'lmasa*", "*Qilding manga javr-u jafo, ey mahliqo, ey mahliqo*" 4^a sahifa hoshiyasida 1 ta 9 baytli "*Lutfi behad holizoring' aqilib, ey mohtob*" 4^b sahifa hoshiyasida 1 ta 7 baytli "*Aylab manga lutfing ayon, ey no'shlab, ey no'shlab*", 11^b-12^a sahifa hoshiyasida 2 ta 7 baytli "*Jamoling, ey qumr ital'at, jahon g'aziyna tafzodur*" "*Jamoling mehri, ey dilbar, sening sham'i gulistondur*" 25^a sahifa hoshiyasida 1 ta 7 baytli "*Manga rahm aylab ul xurshid tobon nega kelmassan*" 25^b-26^a sahifa hoshiyasida 2 ta 7 baytli "*Gul yuzing shavqida har dam aylabon oh-u fig'on*", "*Ishqing g'amidin, ey pari, har dam qilib oh-u fig'on*" 1 ta 15 baytli "*Ey malohat avji uzra ne ajab shahbozsan*", misralari bilan

boshlanuvchi g‘azallari ko‘chirilgan. “*Ey malohat avji uzra ne ajab shahbozsan*” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali 25^a sahifa hoshiyasida 7 bayt tarzda ko‘chirilgan, ammo ushbu g‘azal misralari qizil siyohda tekis chiziq bilan o‘chirilgan. Keyingi sahifa hoshiyalarida esa 15 bayt qilib keltirilgan.

32^b sahifada g‘azallar yakunlanib, 33^a sahifadan shoirning “*Bo‘lg‘on taxti adolat uzra doim hukmronlar, Qading g‘amida qumri kibi aylaram izhor*” misralari bilan boshlanuvchi mustazodlari ko‘chirilgan.

34^{a-b} sahifalarda “*Forig‘ o‘lmadi dahrning olomasqomi bila*”, 34^b-35^a sahifalarda 9 baytli “*Zihi Qodirki aylabdahr aro sun‘i ajab paydo*”, 35^{a-b} sahifalarda 9 baytli “*Bu dam aylab manga bazmim aro tarkisi tam kelgil*” 35^b-36^a sahifalarda 5 baytli “*Ma‘shuqq‘a bu ko‘nglumi xushetdir abilmam*” 36^{a-b} sahifalarda 5 baytli “*Tez etar dardimo‘tinhusninga oro berushing*”, 36^b-37^a sahifalarda 7 baytli “*Lutfetib manga bu dam jomi vasling ehsonqil*”, 37^{a-b} sahifalarda 7 baytli “*Zihi altofi Haq bo‘lmish mani bechorag‘a hamdam*”, 37^b-38^a sahifalarda 7 baytli “*Zihisaririri solat uzra erursen shoh*”, 38^{a-b} sahifalarda 7 baytli “*Aylar erdi morzu ul chashmi fatton mujdasin*”, 38^b-39^a sahifalarda 7 baytli “*Borib ul yorijon oldig‘a man zor*”, 39^{a-b} sahifalarda 5 baytli “*Holi majavr-u sitamlarni ravo ko‘rmak nedur?*” 39^b-40^a sahifalarda 7 baytli “*Bihamdillah, mani mahzung‘a lutfi behisobaylab*” 40^{a-b} sahifalarda 7 baytli “*Ey ko‘ngul, yuz yilg‘i rohat birdamig‘a arzimas*”, misralari bilan boshlanuvchi muxammaslari ko‘chirilgan. Bundan tashqari shoirning 34^{a-b} sahifa hoshiyasida ham bitta “*Man, ki yak sarkashtai ishqa mazavqotammapo‘rs*” misrasi bilan boshlanuvchi forsiy muxammasi ham mavjud.

34^b-35^a sahifa hoshiyasida esa 11 bandli “*Alo, ey shahan shohizarrinrikob*,” misrasi bilan boshlanuvchi murabba ko‘chirilgan.

Mazkur qo‘lyozmada Sa‘diyning 5 ta musaddasi ko‘chirilgan. 40^b-41^a sahifalar oralig‘idagi “*Salom ul sarvigulruxsorimizg‘a*” musaddasi 7 banddan, 41^{a-b} sahifalar oralig‘idagi “*Soqiyo, qo‘ymay ko‘ngulda zarra dekarmonimiz*” 5 banddan, 41^b-42^a sahifalar oralig‘idagi “*Alo, ey shohi odil, koniirfon*” 7 banddan iborat. Shuningdek, 40^b-41^b sahifa hoshiyasidagi “*Ey adl sariruzra sulton*” musaddasi 11 banddan, 41^b-42^a sahifa hoshiyasidagi “*Ne sitamlarni manga bucharxi xunxor ayladi*” 7 banddan iborat. Birinchi musaddas quyidagi band bilan boshlanadi:

*Salom ul sarvigulruxsorimizg‘a,
Salom ul ko‘zlari bemorimizg‘a,
Salom ul xush shakar guftorimizg‘a,
Salom ul yori xushatvorimizg‘a,
Karam aylab bu holizorimizg‘a,
Salom ayt, qosid, ul dildorimizg‘a.*

42^a-43^b sahifalarda shoirning birinchi 11 bandli “*To jahon borincha bo‘lg‘ay ul shahi shohonimiz*” hamda 43^b-44^a sahifalarda ikkinchi 6 bandli “*Ey taxti adolat uzra sulton*” misralari bilan boshlanuvchi musabasi ko‘chirilgan. Ikkinchi musabba aslida 7 banddan

iborat Ammo 7092, 6681 raqamli manbalarda musabbaning 6 bandi ko‘chirilib, quyidagi ikkinchi bandi tushirilib qoldirilgan:

*Ey mehri malohat osmoni,
V-eyoshiqi jism zorjoni,
Hajringo ‘tidabunotavoni,
Ko ‘kdinoshar oh ilafig ‘oni,
Tark aylaxudouchunjafoni,
Bu zor-u hazing ‘alutfetibon,
Vasling mayini onga karamqil.*

[Ushbu band 909/2 raqamli manba asosida tiklandi. 7092 raqamli manbada mavjud emas.]

44^a-45^a sahifalarda 49 baytli “*Oning ismi bilanomim binosi*”, 45^a-46^a sahifalarda 37 baytli “*Sano ul Xudoyimg ‘a bo ‘lsun nisor*” va 44^a-45^a sahifalar hoshiyasida ham bitta 53 baytli “*Nisoro ‘lsunonga hamd-u sanoyish*” misralari bilan boshlanuvchi masnaviylari ko‘chirilgan.

46^a-47^a sahifalarda “*Xudo vando, boribandang g ‘aqilg ‘illutfila ehson*”, 47^{a-b} sahifalarda “*Holima lutf-u karamlaraylabon, ey soqiyo*” misralari bilan boshlanuvchi qasidalar ko‘chirilgan.

47^b sahifada qo‘lyozma quyidagi kalafon bilan yakunlanadi:

Kotib mulla Karimbergan Devon ibn Rahmonbergan marhumiy sanayi bir ming uch yuz yigirma beshlanchiyili.

Xulosa qilib aytganda, shoir asarlarining monografik tavsifini yaratish orqali ijodkor lirik merosi manbalari xususidagi ilmiy mulohazalarni asoslash matnshunoslik sohasining dolzarb vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Qo‘lyozma № 909/2
2. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Qo‘lyozma № 7092
3. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Qo‘lyozma № 6681/1
4. Ҳакимов М. (2013). Шарқ манбашунослиги луғати. – Тошкент: Давр пресс. – Б. 496.
5. Навоий асарлари луғати (Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов). (1973) Тошкент: Адабиёт ва санъат. – Б. 784.